O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 373.2(47+57):001.891

Odinaxon A.XOLMIRZAYEVA,
Mustaqil izlanuvchi, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston
E-mail: botirovaodina974@gmail.com, ORCID:0009-0008-5563-5245

QDU dotsenti, PhD I.Usmonaliyev taqrizi asosida

THE STUDY OF THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM OF THE SOVIET PERIOD IN FOREIGN RESEARCH

Annotation

This article examines the study of the Soviet preschool education system in foreign academic literature from a historiographical perspective. It reviews the works of K.Kelly, L.Krischenbaum, F.Saddington, J.Tudge, I.Silova, G.Palandjian, and other foreign scholars, focusing on their thematic scope, methodological approaches, and research findings. The analysis addresses the history of childhood, the development of preschool institutions, the ideological dimensions of child-rearing, children’s literature, and the sociocultural aspects of education. The findings indicate that foreign scholarship provides an important theoretical and methodological basis for studying Soviet childhood and educational policy. However, the activities of preschool institutions in Central Asia, particularly in the Uzbek SSR, have not been sufficiently examined as an independent and systematic subject of historical research.

Key words: Soviet period, preschool education, history of childhood, foreign research, historiography, educational policy, ideological upbringing, children’s literature, Uzbek SSR.

ИЗУЧЕНИЕ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СОВЕТСКОГО ПЕРИОДА В ЗАРУБЕЖНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Аннотация

В статье анализируется изучение системы дошкольного образования советского периода в зарубежной научной литературе с точки зрения историографии. Рассматриваются научные труды К.Келли, Л.Кришенбаум, Ф.Саддингтон, Дж.Таджа, И.Силовой, Г.Паланджян и других зарубежных исследователей с учётом их тематической направленности, методологических подходов и научных результатов. Освещаются история детства, становление дошкольных учреждений, идеологическое содержание воспитания детей, детская литература и социокультурные аспекты образовательного процесса. В результате анализа установлено, что зарубежные исследования создают важную научную основу для изучения советского детства и образовательной политики. Вместе с тем деятельность дошкольных учреждений Средней Азии, в частности Узбекской ССР, недостаточно изучена в качестве самостоятельного и системного объекта исторического исследования.

Ключевые слова: советский период, дошкольное образование, история детства, зарубежные исследования, историография, образовательная политика, идеологическое воспитание, детская литература, Узбекская ССР.

SOVET DAVRI MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING XORIJIY TADQIQOTLARDA O‘RGANILISHI

Annotatsiya

Maqolada sovet davri maktabgacha ta’lim tizimining xorijiy ilmiy adabiyotlarda o‘rganilishi tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. K.Kelli, L.Krischenbaum, F.Saddington, J.Tudge, I.Silova va G.Palandjian hamda boshqa xorijiy tadqiqotchilarning ishlari mavzuviy yo‘nalishlari, metodologik yondashuvlari va ilmiy natijalari bo‘yicha qiyosiy ko‘rib chiqiladi. Tahlilda bolalik tarixi, maktabgacha ta’lim muassasalarining shakllanishi, bolalar hayotining mafkuraviy talqini, bolalar adabiyoti va ta’lim mazmuni hamda sovet ta’limining ijtimoiy-madaniy vazifalari yoritiladi. Ko‘rib chiqilgan adabiyotlar sovet bolaligi va ta’lim siyosatini o‘rganishda muhim nazariy-metodologik asos yaratadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston SSR hududidagi maktabgacha ta’lim muassasalari tarixi alohida, tizimli tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha yoritilmagani aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Sovet davri, maktabgacha ta’lim, bolalik tarixi, xorijiy tadqiqotlar, tarixshunoslik, ta’lim siyosati, mafkuraviy tarbiya, bolalar adabiyoti, O‘zbekiston SSR.

Kirish. Sovet davrida maktabgacha ta’lim muassasalari faqat bolalarni parvarishlash va maktabga tayyorlash maskanlari bo‘lib qolmay, davlatning ijtimoiy siyosati, tarbiya haqidagi qarashlari va mafkuraviy maqsadlari amalga oshiriladigan muhim institutlardan biri sifatida faoliyat yuritgan. Shu sababli sovet ta’lim tizimini o‘rgangan xorijiy tadqiqotchilar bolalar hayotini davlat siyosati, oila, kundalik turmush, pedagogik qarashlar va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda tahlil qilganlar.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda mavzu turli yo‘nalishlarda yoritilgan bo‘lib, ayrim tadqiqotlarda sovet jamiyatida bolalik tushunchasining o‘zgarishi va bolalarga nisbatan davlat siyosati o‘rganilgan bo‘lsa, boshqalarida maktabgacha ta’lim muassasalarining shakllanishi, bolalar adabiyoti, ta’lim mazmuni va bolalarda jamoaviylikni shakllantirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Ushbu ishlar sovet davri maktabgacha ta’limini kengroq ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning bir qismi sifatida tushunishga yordam beradi.

Maqolaning maqsadi sovet davri maktabgacha ta’lim tizimiga oid xorijiy tadqiqotlarni mavzu, metod va xulosalar jihatidan tizimlashtirish, ularning ilmiy hissasini baholash hamda O‘zbekiston tarixiga doir tadqiqotlar uchun mavjud ilmiy bo‘shliqni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaning manbaviy asosini sovet bolaligi, ta’lim siyosati, maktabgacha tarbiya, bolalar adabiyoti va ta’lim mazmuniga bag‘ishlangan xorijiy ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Tahlilga K.Kelli, L.Krischenbaum, F.Saddington, J.Tudge, I.Silova va

G.Palandjian asarlari, shuningdek, H.Chauncey, D.Karoli, E.White, T.Gerber, R.Clawson va A.E.Skerry tadqiqotlari haqidagi bibliografik ma’lumotlar jalb qilindi [1].

Tadqiqotda tarixshunoslik tahlili, qiyosiy-tanqidiy yondashuv va tarixiy tasniflash usullaridan foydalanildi. Tarixshunoslik tahlili mualliflarning tadqiqot maqsadi, asosiy muammolari va ilmiy natijalarini aniqlashga xizmat qiladi. Qiyosiy yondashuv bolalik tarixi, maktabgacha ta’lim amaliyoti, mafkuraviy tarbiya va ta’lim materiallariga doir qarashlarni o‘zaro solishtirish imkonini beradi. Maqolada har bir ishning faqat manbada ko‘rsatilgan mazmuni va ilmiy yo‘nalishi hisobga olingan holda yoritildi.

Tadqiqotning hududiy markazi O‘zbekiston bo‘lsa-da, ko‘rib chiqilgan xorijiy ishlarning aksariyati sobiq Sovet Ittifoqi yoki uning ayrim hududlarini qamrab oladi. Shu sababli ular Vatanimiz tarixiga oid bevosita daliliy ma’lumot sifatida emas, sovet ta’lim siyosati va bolalik tarixi haqida ilmiy-axborot beruvchi qiyosiy manbalar sifatida baholanadi.

Natijalar. Xorijiy tadqiqotlarni mazmuniga ko‘ra bir necha o‘zaro bog‘liq yo‘nalishga ajratish mumkin. Birinchi yo‘nalish sovet jamiyatida bolalikning tarixiy tajribasi va davlat siyosati bilan bog‘liq. Britaniyalik tarixchi K.Kellining “Children’s World: Growing up in Russia, 1890 – 1991” asari podsho Rossiyasidan Sovet Ittifoqi parchalanishigacha bo‘lgan davrda bolalar hayotini keng tarixiy doirada ko‘rib chiqadi [1]. Muallif bolalikni jamiyatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini anglash mezoni sifatida talqin qiladi hamda davlat siyosati, oilaviy munosabatlar va kundalik tajriba o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritadi. Asarda maktablar, bolalar muassasalari va mehribonlik uylaridagi sharoitlar bilan bir qatorda, inqiloblar, urushlar va siyosiy qatag‘onlarning bolalar hayotiga ta’siri ham ko‘rib chiqiladi. K.Kelli sovet bolaligi haqidagi rasmiy tasavvurlar bilan bolalarning amaliy ehtiyojlari o‘rtasidagi ziddiyatga alohida e’tibor qaratadi.

Bolalikning mafkuraviy qurilishi L.Krischenbaumning “Small Comrades: Revolutionizing Childhood in Soviet Russia, 1917 – 1932” asarida ham muhim o‘rin egallaydi [2]. Asarning uchinchi bobi inqilobdan keyingi davrda sovet maktabgacha ta’lim muassasalarini yangi g‘oyalar asosida tashkil etish masalalariga bag‘ishlangan. Tadqiqotda bolalarning kundalik hayoti bilan kattalar, pedagoglar va siyosiy kuchlar tomonidan ilgari surilgan “ideal bolalik” modeli o‘zaro qiyoslanadi. Shu orqali bolalar tarbiyasiga oid qarashlarning mafkuraviy mazmuni ochib beriladi.

Ikkinchi yo‘nalish bolalar adabiyoti va tarbiyaviy mazmunning shakllanishi bilan bog‘liq. F.Saddington sovet davrining dastlabki bosqichida bolalar uchun mo‘ljallangan rasmli kitoblarning paydo bo‘lishi, nashriyotlar faoliyati, badiiy-uslubiy xususiyatlari va tarbiyaviy vazifalarini tarixiy-madaniy jarayonlar doirasida o‘rgangan [3]. Tadqiqot 1917-yilgi inqilobdan keyin bolalar adabiyotida yuz bergan o‘zgarishlar hamda yangi sovet avlodini tarbiyalash g‘oyalari bilan kitoblarning mazmuni, shakli va tarqalishi o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishi bilan ahamiyatlidir. Muallif turli oliy ta’lim muassasalari kutubxonalari va muzey fondlarida saqlanayotgan 657 ta rasmli bolalar nashri bilan birga, bolalar jurnallari, nashriyot kataloglari, reklama plakatlari, davriy matbuot, adabiy-tanqidiy va pedagogik adabiyotlar hamda ayrim arxiv materiallaridan foydalangan.

Uchinchi yo‘nalish sovet ta’limining tarixiy ildizlari va kundalik pedagogik amaliyotini o‘rganishga qaratilgan. J.Tudge sovet ta’lim tizimini Rossiya imperiyasi davridagi ta’limning oddiy davomi sifatida talqin qilishga qarshi chiqib, avvalgi pedagogik qarashlar marksizm-leninizm tamoyillari asosida tanlab o‘zlashtirilganini ta’kidlaydi [4]. Uning ishlarida yasli va bog‘chalardagi kun tartibi, jamoaviy o‘yinlar, mehnat tarbiyasi hamda bolalarni maktabga tayyorlash masalalari yoritilgan. Muallif ushbu amaliyotlarni bolalarda jamoaviylik va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan siyosat bilan bog‘laydi.

To‘rtinchi yo‘nalish ta’lim mazmuni, siyosiy ijtimoiylashuv va milliy o‘zlik masalalarini qamrab oladi. I.Silova va G.Palandjian sovet ta’lim tizimining bolalar dunyoqarashi hamda milliy o‘zlikni shakllantirishdagi o‘rnini postkolonial nazariya va tanqidiy diskurs-tahlil asosida ko‘rib chiqadi [5]. Ular 1940 – 1990-yillarda Rossiya, Armaniston, Latviya va Ukrainada nashr etilgan 15 ta boshlang‘ich savodxonlik darsligini qiyosiy o‘rganib, sovet mafkurasining ta’lim mazmuniga singdirilish mexanizmlarini tahlil qilganlar. Sovet vatanparvarligi, jamoaviylik va mehnatga oid g‘oyalarning milliy qahramonlar, folklor hamda mahalliy tabiat tasvirlari bilan birgalikda taqdim etilishi rasmiy mafkura va milliy o‘zlik o‘rtasidagi murakkab munosabatlar nuqtayi nazaridan talqin etiladi.

Bundan tashqari, H.Chauncey, D.Karoli, E.White, T.Gerber, R.Clawson va A.E.Skerry kabi tadqiqotchilarning ishlari sovet maktabgacha ta’limi, yaslilarni isloh qilish, rus bolaligi tarixi, ta’limdagi tabaqalanish va bolalarning siyosiy ijtimoiylashuvi kabi masalalarni turli jihatlardan yoritadi [6]. Bu bibliografik doira sovet ta’limi va bolalik tarixining faqat pedagogik muammo bilan cheklanmaganini, balki tarix, sotsiologiya, qiyosiy ta’lim va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada o‘rganilganini ko‘rsatadi.

Muhokama. Ko‘rib chiqilgan tadqiqotlar sovet davri maktabgacha ta’limini tahlil qilishda bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatadi. K.Kelli va L.Krischenbaum bolalikning tarixiy tajribasi bilan davlat va siyosiy kuchlar yaratgan me’yoriy tasavvurlar o‘rtasidagi munosabatlarga urg‘u beradi [1]. F.Saddington bolalar kitoblari orqali tarbiyaviy g‘oyalar qanday ifodalanganini ko‘rsatsa, J.Tudge maktabgacha muassasalardagi kundalik tartib va pedagogik amaliyotning ijtimoiy-mafkuraviy mazmunini ochishga intiladi [3]. I.Silova va G.Palandjianning tadqiqoti esa ta’lim matnlari orqali rasmiy mafkura va milliy o‘zlikning o‘zaro munosabatini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi [5].

Mazkur tadqiqotlardan kelib chiqadigan muhim metodologik xulosa shuki, maktabgacha ta’lim tarixini faqat davlat qarorlari yoki pedagogik dasturlar asosida o‘rganish yetarli emas. Rasmiy siyosat bilan bolalarning kundalik tajribasi, muassasalarning real sharoiti va tarbiyaviy materiallarning mazmuni o‘rtasidagi munosabatni birgalikda ko‘rib chiqish zarur. Turli turdagi manbalar, ya’ni arxiv hujjatlari, davriy matbuot, bolalar nashrlari, pedagogik adabiyotlar va og‘zaki tarix materiallarini o‘zaro qiyoslagan holda o‘rganish tarixiy jarayonni yaxshiroq anglash imkonini beradi. Biroq mazkur xorijiy tadqiqotlarning hududiy qamrovi O‘zbekiston tarixini bevosita tiklash uchun cheklangan. Ko‘rib chiqilgan ishlarda O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston SSR hududidagi maktabgacha ta’lim muassasalari mustaqil va tizimli tadqiqot obyekti sifatida alohida o‘rganilmagan.

Xulosa. Xorijiy tadqiqotlar tahlili sovet davri maktabgacha ta’lim tizimi bolalik tarixi, davlat siyosati, mafkuraviy tarbiya, bolalar adabiyoti va kundalik pedagogik amaliyot bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilganini ko‘rsatadi. K.Kelli va L.Krischenbaum bolalikning tarixiy tajribasi hamda “ideal bolalik” tushunchasini tahlil qilgan bo‘lsa, F.Saddington esa bolalar rasmli kitoblarining tarbiyaviy va madaniy vazifalarini yoritgan. Yana bir xorijlik olim J.Tudge izlanishlari sovet ta’limining tarixiy asoslari va maktabgacha muassasalardagi amaliyotga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, I.Silova va G.Palandjian tadqiqotida ta’lim mazmuni, mafkura va milliy o‘zlik o‘rtasidagi munosabatlarni qiyosiy tahlil qilgan [1]. Boshqa tadqiqotchilarning tadqiqotlari ushbu tarixiy tadqiqiqot mazmunini maktabgacha ta’lim islohotlari, bolalik tarixi va

siyosiy ijtimoiylashuv masalalari bilan birmuncha kengaytiradi [6].

Shu bilan birga, ko‘rib chiqilgan adabiyotlarda O‘zbekiston SSR hududidagi maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyati alohida va tizimli tadqiqot sifatida yetarlicha yoritilmagan. Bu holat O‘zbekiston tarixiga oid mahalliy arxiv hujjatlari, statistik hisobotlar va boshqa birlamchi manbalarni jalb etgan holda mustaqil tadqiqot olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Xorijiy ilmiy tajribani mahalliy manbalar bilan qiyosiy uyg‘unlashtirish sovet davrida O‘zbekistondagi maktabgacha ta’lim tizimining o‘ziga xos jihatlarini xolis va dalillarga asoslangan tarzda yoritishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Kelly, K. Children’s World: Growing up in Russia, 1890 – 1991. – New Haven: Yale University Press, 2007. – 714 p.
2. Krischenbaum, L. Small Comrades: Revolutionizing Childhood in Soviet Russia, 1917 – 1932. – London: Routledge, 2001. – 242 p.
3. Saddington, F. The Soviet Children’s Picture Book, 1917–1932. – University of East Anglia, School of History, 2020. – 334 p.
4. Tudge, J. Education in the USSR: Russian or Soviet? // Comparative Education. – 1975. – Vol. 11, No. 2. – P. 127–136; Tudge, J. Education of Young Children in the Soviet Union: Current Practice in Historical Perspective // Elementary School Journal. – 1991. – Vol. 92, No. 1. – P. 121–133.
5. Silova, I., Palandjian, G. Soviet Empire: Childhood and Education // Revista Española de Educación Comparada. – 2018. – No. 31. – P. 147–171.
6. Chauncey, H. Soviet Preschool Education. – Chicago, 1969. – 203 p.; Karoli, D. The Reform of Day Nurseries in the Soviet Union: Towards a Preschool Education System (1945–1970s) // History of Education and Children’s Literature. – 2017. – Vol. 12, No. 2. – P. 303–328.
7. White, E. A Modern History of Russian Childhood: From the Late Imperial Period to the Collapse of the Soviet Union. – London: Bloomsbury Academic, 2020. – 290 p.
8. Gerber, T. Educational Stratification in Russia during the Soviet Period // American Journal of Sociology. – 1995. – No. 3. – P. 611–660.
9. Clawson, R. Political Socialization of Children in the USSR // The Academy of Political Science. – 1973. – No. 4. – P. 684–712; Skerry, A. E. The Origins of Pedagogy: Developmental and Evolutionary Perspectives // Evolutionary Psychology. – 2013. – No. 6. – P. 550–572.